

TA'LIM TIZIMIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA IQTISODIY MEXANIZMLARI

Uzoqova Shohida

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va
tarixi yo'nalishi I-kurs magistratura talabasi*

Ilmiy rahbar: F.E.Qodirov

*“ Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasi mudiri,
iqtisod fanlari doktori, DSc dotsent.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim tizimida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy omillar tahlil qilinadi va o'rganiladi. Inson kapitali tushunchasining mazmuni, uning ta'lim sifati va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri yoritib beriladi. Tadqiqot jarayonida ta'lim orqali bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish inson kapitalini mustahkamlashning muhim sharti ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, ta'lim tizimida inson kapitaliga investitsiya kiritishning uzoq muddatli samaralari, yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Maqola xulosasida ta'lim tizimini takomillashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *inson kapitali, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy tenglik.*

Kirish. XXI asrda davlatlar o'rtasidagi raqobat tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan emas, balki inson kapitalining sifati bilan belgilanmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimli, malakali, ijodiy fikrlay oladigan va tez moslashuvchan yoshlar asosiy strategik boylik sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim tizimi asosiy o'rin egallaydi.

Ta'lim jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson kapitalining ta'lim tizimidagi o'rni va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Inson kapitali tushunchasi va uning mazmuni. Inson kapitali – bu shaxsning bilim darajasi, kasbiy malakasi, tajribasi, sog'lig'i, intellektual va ijodiy salohiyatining yig'indisi bo'lib, u iqtisodiy faoliyat jarayonida daromad keltirish qobiliyatiga ega. Ushbu tushuncha an'anaviy kapital shakllaridan farqli bo'lib, inson shaxsida mujassam bo'lishi bilan ajralib turadi. Inson kapitalining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: ta'lim orqali egallangan bilim va ko'nikmalar; kasbiy tayyorgarlik va malaka darajasi; sog'liq holati va mehnat unumdorligi; ijtimoiy faollik va axloqiy qadriyatlar; innovatsion va tanqidiy fikrlash qobiliyati. Mazkur omillar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur'atlarini belgilaydi. Zamonaviy global integratsiya, innovatsion texnologiyalarning jadal rivoji va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida malakatlarning izchil taraqqiyoti hamda xalqaro

maydondagi raqobatbardoshligi, avvalo, inson resurslarining sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanmoqda. Inson kapitali jamiyat a'zolarining bilim saviyasi, kasbiy tayyorgarligi, intellektual salohiyati, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy faolligi kabilarni o'zida mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanib, u iqtisodiy taraflama o'sish va ijtimoiy barqarorlikning dolzarb omili bo'ladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, inson kapitali loyihasi tashabbusi 90 dan ortiq davlatlarni qamrab olgan bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishga sarmoyalarni tezlashtirishga qaratilgan. Ushbu dastur doirasida inson kapitali rivojiga mo'ljallangan, xodimlarni yangi iqtisodiy talablarga moslashish uchun qayta o'qitish va malakasini oshirish loyihalarini qo'llab – quvvatlashga taxminan 4,6 milliard dollar ajratilgan. Ushbu jarayonda ta'lim inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida yetakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlar nafaqat o'quv jarayonining mazmunini yangilash, balki inson kapitalining rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik hamda iqtisodiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish va ularning samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Ta'lim sifati, ta'limga yo'naltirilayotgan investitsiyalar samarasi, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasi, shuningdek, ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari inson kapitalining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik va iqtisodiy mexanizmlarni kompleks tarzda tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, inson resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar davomiy amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz siyosatida inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan bo'lsa-da, mavjud pedagogik va iqtisodiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirish, ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur holat tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini yana-da kuchaytiradi. Inson kapitalini rivojlantirish ma'lum miqdordagi investitsiyalarni jalb etishni ham talab qiladi. "Bolaning ta'limiga 1 dollarlik sarmoya kiritilsa, umr bo'yi 5 dollargacha daromad keltiradi. Qo'shimcha ta'lim yili o'rtacha umr bo'yi daromadni 9% ga va ba'zi hollarda 15% gacha ko'taradi". Bugungi keng miqyosdagi taraqqiyot davrida jahonda inson kapitalini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va investitsiyalar tarkibida ushbu kapitalga ustuvor darajada munosabatda bo'lish tobora dolzarbligicha qolmoqda.

Ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning asosi sifatida. Ta'lim sifati inson kapitalining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Ta'lim yillarining ko'pligi emas, balki o'quv jarayonida shakllangan bilim va ko'nikmalarning hayotda qo'llanilishi muhimdir. Sifatli ta'lim shaxsning mehnat unumdorligini oshiradi, uning raqobatbardoshligini ta'minlaydi va jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida natijaga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarur.

Inson kapitalini shakllantirishda o'qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs tarbiyalovchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi subyekt hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim sifati ham shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Shu sababli pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitaliga qilingan eng samarali sarmoya hisoblanadi.

Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ham inson kapitalining samaradorligini belgilaydi. Agar ta'lim jarayoni real iqtisodiy ehtiyojlardan uzilib qolsa, bitiruvchilar egallagan bilim va ko'nikmalar amaliyotda o'z samarasini bermaydi. Natijada inson kapitali to'liq shakllanmaydi. Shuning uchun ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga mos holda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi tarqqiyot sharoitida umrboqiy ta'lim konsepsiyasi inson kapitalining yangi modelini shakllantirmoqda. Texnologiyalar tez yangilanayotgan bir paytda shaxs faqat yoshlik davrida olingan bilimlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Doimiy o'qish, qayta tayyorlanish va malaka oshirish inson kapitalining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'limda inson kapitalini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Sifatli ta'lim, malakali o'qituvchi, mehnat bozori bilan uyg'unlik va umrboqiy o'rganish tizimi orqali inson kapitalining qiymatini oshirish mumkin. Inson kapitaliga qilinayotgan har bir sarmoya kelajakda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishning eng muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim shaxs rivojining boshlang'ich poydevorini bunyod etsa, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim bosqichlari insonning intellektual va kasbiy salohiyatini rivojlantiradi. Samarali ta'lim tizimi: nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi; mehnat bozori talablariga mos kadrlarni tayyorlaydi; shaxsning mustaqil fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi; uzluksiz ta'lim olish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada ta'lim sifati oshgani sari inson kapitalining qiymati va jamiyat uchun foydasi ham ortib boradi.

Inson kapitalining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri. Inson kapitali iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion faoliyatni ta'minlaydi. Yuqori malakaga ega kadrlar yangi texnologiyalarni tez o'zlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga hissa qo'shadi. Shuningdek, inson kapitali: bandlik darajasini oshiradi; aholining daromadlarini ko'paytiradi; ijtimoiy tenglik va barqarorlikni mustahkamlaydi; demokratik jarayonlarda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Demak, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy, balki keng ijtimoiy samara beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim va inson kapitali. Raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitaliga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarmoqda. Endilikda shaxsning raqamli savodxonligi, axborot bilan ishlash qobiliyati va texnologik yangiliklarga moslashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilishi; masofaviy va

onlayn ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishi; hayot davomida ta'lim olish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlashi zarur. Bu esa inson kapitalining doimiy yangilanib borishini ta'minlaydi. Jahonda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi sharoitida inson kapitalining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, uning ichki imkoniyatlarini ochib berish hamda istiqboldagi maqsad va talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish va ijtimoiy taraqqiyot muvofiqligini inson kapitali asosida muvofiqlashtirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida inson kapitaliga ko'ra munosib ish o'rinlarini yaratish, korxona boshqaruvida inson kapitalini rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transformatsiya sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda inson kapitalini sifat jihatdan tubdan rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida ishlab chiqarish sohalarida inson kapitalini innovatsion usullarni qo'llagan holda qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim orqali inson kapitalini rivojlantirish masalalari. O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning bilim va malaka darajasini oshirishga, milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashga, jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inson kapitali zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning shakllanishida ta'lim tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sifatli, innovatsion va uzluksiz ta'lim inson kapitalining samaradorligini oshiradi, bu esa iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi va poydevorini mustahkamlaydi. Shu sababli ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish har qanday davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – New York: Columbia University Press, 1993.
2. Schultz T. W. Investment in Human Capital. – New York: Free Press, 1971.
3. Mankiw N. G. Macroeconomics. – Harvard University, 2019.
4. OECD. Education at a Glance. – Paris: OECD Publishing, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari – ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasiga oid hujjatlar.
7. Абдуллаев А. Инсон капитали ва иқтисодий тараққиёт. – Тошкент, 2020.
8. Исмоилов Б. Таълим иқтисодиёти асослари. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2021.